E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

IDIOMALARNING STRUKTURAVIY TUZILISHI

Latipova Soniya Shokir qizi
latipovasoniya10@gmail.com
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston

ANNOTATION: Idioms are included several meanings of one word. It has a difficulty in translating word by word. This article notes that the structure of idioms and identify the exact meaning of them. This research analyses syntactic, semantic and grammar characteristics of idioms in context. Anyway, this article, the system of idioms and their influences to the literal language.
Key words: Idiom, meaning, semantic, syntactic, grammar, literal language
ANNOTATSIYA: Idiomalar ko'p so'zli iboralar bo'lib, ularning ma'nolarini so'zma-so'z talqin qilishdan xulosa qilib bo'lmaydi. Ushbu maqola idiomalarning tuzilishini va ularning ma'nolari kitobxonga qanday ifodalanishini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda idiomatik iboralarning sintaktik, semantik, grammatik xususiyatlari va ularning kontekstdagi ma'nolari tahlil qilinadi. Umuman olganda, bu maqola idiomalarning tarkibiy tizimini va uning badiiy tilga ta'sirini tushinishga xizmat qiladi.
Kalit so'zlar: Idioma, ma'no, semantik, sintaktik, grammatik, badiiy til.

KIRISH

Bugingi kunda tilshunoslikda frazeologiyaning tutgan o'rni juda katta. Frazeologiya – tilshunoslikning turli xil to'plamli iboralarni o'rganadigan bo'limi bo'lib, ular so'zlar, iboralar, matal va qiziqarli ifodalar kabi har xil narsalarni nomlaydi. Tilshunoslikning asosiy vazifasi, tilning frazeologik tarkibini, uning hozirgi holatini va tarixini o'rganishdir.

Frazeologiya iborasini ko'plab tillarda uchratishimiz mumkin. O'zbek tilida "frazeologizm, frazeologiya, ibora, turg'un birikma, frazeologik birikma", ingliz tilida "phraseology, phraselogical units, idioms", rus tilida "фразеологизм" deb nomlanadi. Iboralar, so'z uyushmalari, turg'un birikmalar bo'lib frazeologiyada ular tuzilishi va ma'no jihatdan o'rganiladi. Frazeologiya har qanday til lug'atining eng jonli, yorqin va o'ziga xos qismi hisoblanadi. Bundan tashqari ingliz tilidagi frazeologiyalarning aksariyati turli funksional uslublarga tegishli va ekspressiv rangi bilan ajralib turadi. Ingliz tilida frazeologiya "idioms" deb ham yuritiladi. Barcha frazeologik birliklar milliyligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, kontekstda ekspressiv ma'no kasb eta oladi. Frazeologiya dunyodagi har qanday tilning ajralmas qismi hisoblanadi. Frazeologik birliklar va frazeologik birikmalar ingliz xalqlarining ko'p asrlik tarixini, madaniyati, turmush tarzi va an'analarining o'ziga xosligini o'zida mujassam etadi. Frazeologizmlar semantik jihatdan so'zlardan farqli belgi xususiyatlarga ega bo'lganligi uchun ham, tilda paydo bo'lgan va hoziri kungacha qo'llanilib kelmoqda. O'zaro bir-biri bilan bog'langan bu so`zlar mohiyatiga ko'ra birikmaga yoki gapga teng bo'ladi. Bunday birikma yoki gapdan yaxlitligicha ma'no ifodalashi – frazeologik ma'no uni sintaktik birlik deb emas, balki semantik birlik degan fikrga to'g'ri yo'naltiradi. Shu sababli, birikmaga yoki gapga tenglik haqida gap ketganda, iboraning ichki sintaktik tuzilmasi ko'zda tutiladi; ibora tarkibini sintaktik tahlil qilish nutq birligining tarkibini emas, balki til birligining tarkibini tahlil qilish bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasi 50-yillardan boshlab, mustaqil bir soha sifatida shakllishni boshlagan. Bunda Sh.Rahmatullayevdan tashqari Y.Penxasov, E.Umarov, I.Qo'chqortoyev, H.Qahhorova, M.Husainov, M.Ro'ziqulova kabi olimlarning xizmati katta o'rin tutadi. Xususan, frazeologik birliklar I.Qo'chqortoyev, Sh.Rahmatullayev, A.Rafiyev, Sh.Usmanova, M.Mirzayev, I.Rasulov, A.G'ulomov, A.Mamatov kabi olimlar tomonidan turlicha tadqiq etilgan bo'lib, ularning izlanishida frazemalarning o`ziga xos tomonlari, shakl va

ma’no xususiyatlari, badiiy asar tarkibida qo’llanilish imkoniyatlari kabi masalalarga alohida to’xtalib o’tilgan.

Rus tilshunoslarining ta’kidlashlaricha, rus tilida ham barqaror so’z birikmalari mavjud bo‘lib, ulardan foydalanish orqali nutqdagi fikr ma’nosi anglashiladi [5]. Frazeologik birliklar semantik jihatdan bo’linmaydi. Ularning tarkibiy qismlari boshqa so’zlar bilan almashtirilmaydi va to’ldirilmaydi. Ular to’liq holicha saqlanadi [1].

Iboralar so’z birikmasi yoki gaplar har gal nutqning o’zidagina yuzaga kelmaydi, balki ular, xuddi so’zlar kabi tilda tayyor shaklda hosil bo’ladi. Shuning uchun, iboralarni turg’un birikmalar deb hisoblaymiz. Chunki ibora tarkibidagi so’zlarni ajratib bo’lmaydi. Iboralar gapda bitta so’roqqa javob bo’lib, bitta bo’lak vazifasida keladi. Demak, iboralar nutq hodisasi emas, balki til hodisasi hisoblanadi: *aravani quruq olib qochmoq* va *kavushini to’g’rilab qo’ymoq* kabilar tilda tayyor holdagi birliklardir.

1. Iboralar qo’llanilishi va o’ziga xos ahamiyatli jihatiga ko’ra, odatda, bitta so’zga teng bo’ladi: *kapalagi uchib ketdi (cho’chidi)*.
2. Iboralar ko’chma ma’no ifodalaydi va ta’sirchanlik va obrazlilikni aks ettiradi. Masalan, *qo’y og’zidan cho’p olmagan* iborasani *o’t yeb turgan qo’y*, *uning og’zidagi cho’p* kabi timsollari ko’z oldimizga keladi. *Yuvosh* so’zida esa bu kabi xususiyatlar yo’q.
3. Iboralar gap tarkibida yaxlit ko’rinishda bitta so’roqqa javob bo’ladi va bitta gap bo’lagi vazifasida keladi: *yulduzni benarvon uradigan yigit – qanday yigit? so’rog’iga javob bo’lib bir xil so’roqqa javob bo’ladi.*
4. Ayrim iboralar tarkibiga boshqa so’zlarni qo’shish hamda so’zlarni tarkibini o’zgartirish mumkin: *ko’zi tushdi – ko’zi menga tushdi*; *burni ko’tarilgan - burni ko’tarilib ketibdi - burni ko’tarilibdi.*
5. Iboralar ko’proq so’zlashuv va badiiy uslubda ishlatiladi. Ulardan foydalanish nutqning ta’sirchanligini oshiradi: *boshi osmonga yetdi – juda sevindi, quvondi* ma’nosidagi so’zni yanada badiiylashtiradi
6. Faqatgina birikmalargina emas, ayrim gaplar ham ibora holida kelishi mumkin: *ishtahasi ochildi, dili siyoh bo’ldi*.

Frazeologik birliklar ham muayyan shakl – strukturaga ega bo’lishi bilan birga, ma’lum semantikaga ham ega. O’zbek tilshunoslarimizdan Safarovning “Sematika” nomli monografiyasida keltirilgan Kondakovning ushbu fikrlariga alohida to’xtalib o’tilgan: “Ma’no biror-bir obyektning kundalik turmush, estetik, ilmiy, ishlab chiqarish, ijtimoiy-siyosiy va boshqa faoliyatlarni bajarayotgan shaxslar uchun nimani anglatishini bildiradi” deya ta’rif bergan [4]. Shu bilan birga shuni aytish joizki, frazeologizmlar shakl va mazmun munosabatida ham bo’ladi.

Frazeologiyada ishlab chiqilgan o’ziga xos, xilma-xil metodlarga asoslangan holda tilning frazeologik tarkibi turlicha: semantik, grammatik, uslubiy asoslarga ko’ra tasnif etiladi. O’zbek tilshunosligida frazeologik birliklar dastlab E.D.Polivanov, keyinchalik Sh.U.Rahmatullayev, M.E.Umarxo’jayev, A.E.Mamatov, B.Yo’ldoshev, X.Berdiyorov, G.I.Ergasheva tadqiqotlarida o’rganilgan. Mazkur olimlar frazeologizmlarni grammatik, semantik funksional-uslubiy jihatlardan o’rganishdi. Iboralarning grammatik, semantik, sintaktik jihatdan tahlil jarayonlarini ko’rishimiz mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Shavkat Rahmatullayevning “O’zbek tilining izohli frazeologik lug’ati” kitobida O’zbek tilshunosligidagi iboralarning asosiy qismini fe’l frazeologik birliklar tashkil qilishini, shuningdek ot komponentli, sifat va ravish komponentli iboralarni ham tilga oladi [3]. Frazeologik birliklarning tabiati til egasining bilimlari, hayotiy tajribasi va mazkur tilda so’zlovchi xalqning madaniy, tarixiy an’analari bilan chambarchas bog’liqdir. Frazeologik birliklarning semantikasi inson va uning faoliyatini tavsiflashga qaratiladi [7]. Frazeologizmlar

tilda paydo bo'ladi va tilda yashaydi, chunki ular so'zlardan farq qiladigan semantik xususiyatlarga ega birliklardir. Bunda o'zaro bog'langan so'zlar, mohiyatan, birikma yoki jumlaga tengdir. Bunday birikma yoki jumlaning frazeologik ma'nosi umuman sintaktik birlik emas, balki semantik birlik degan qarashga olib keladi. Shuning uchun birikma yoki gapdagi tenglik haqida gapirganda, biz iboraning ichki sintaktik tuzilishini nazarda tutamiz; ibora mazmunini sintaktik tahlil qilish nutq birligining mazmunini emas, balki lingvistik birlik mazmunini tahlil qilishdir.

Xitoylik tadqiqotchi Yu Vang ingliz tilidagi iboralarini sintaktik tuzilishiga ko'ra sakkizta kategoriyaga ajratadi [6]. Bularga misol tariqasida Mario Pyuzoning "Cho'qintirgan ota" asaridan olingan iboralar bilan ko'rishimiz mumkin [2].

1) Gap iboralar. *Keep your friends close, but your enemies closer.*

2) Yarim gap iboralar. *Don Corleone would* ***take*** *that* ***man's troubles to his heart****.*

And every Consigliere knew that if he ***kept the faith****, he would become rich, wield power and win respect.*

3) **Fe`lli birikmalar**. *She helped him put on his jacket and* ***brushed it off.***

4)Prepositional phrases – Predlogli birikmalar. *Guerrilla wars* ***by the dozen*** *flared up, ambitious hoodlums trying to carve themselves a bit of empire*

5) Otli iboralar. *She was a "****hot number****" this daughter of his.*

6) Sifatli iboralar. *He made no* ***empty promises****, nor the craven excuse that his hands were tied by more powerful forces in the world than himself.*

7) Juft so'zlar. *She has wonderful body tone, unusual in these cases and now she's in first-class shape for* ***fun and games****.*

8) Qat'iy o'xshatish. *He was built* ***as powerfully as a bull.***

Mario Pyuzoning "Cho'qintirgan ota" asarida tuzilishiga ko'ra sakkiz turdagi frazeologik birikmalar uchrasada, asosan, fe'lli va sifatli birikmalar ko'pchilikni tashkil etadi. Asarda foydalanilgan idiomalar asarning tilini ta'sirchan qilishga xizmat qilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, idiomalarning tarkibiy tizimi sintaksis va semantika o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'z ichiga olgan murakkab hodisadir. Shu o'rinda aytish joizki, idiomatik iboralar shunchaki so'z yoki so'z birikmasi bo'lishidan qat'iy nazar, balki ularning asosiy mazmunini aks ettiruvchi o'ziga xos tarkibiy xususiyatlarga ham ega. Mario Pyuzoning "Cho'qintirgan ota" asaridan keltirilgan iboralar orqali ularning sintaktik jihatidan qaysi turlari bilan ifodalanganligini yuqorida keltirilgan fikrlarning izohida ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alimova, Z. The role of borrowings in the growth of the language vocabulary. AJMR: Asian journal of multidimensional research. Vol 10, Issue 3, March, 2021.
2. Mario P. Godfather. – USA: G. P. Putnam's Sons,1969. - 402 p.
3. Rahmatullayev Sh. "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" Toshkent: O'qituvchi ,1978. – 407b.
4. Safarov.Sh. Semantika – T, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat milliy nashriyoti, 2013. – 344b.
5. Vakhobovna, A.Z., Xayrulloyevich, F. X. About Borrowing Phrazeological Units and their Study in Uzbek Language – International Journal of Culture and Modernity, 2022 – P.61- 67.
6. You W. A Contrastive Research on the Definitions and Categories of Chinese and English Idioms. Advances in Social Science, educational and Humanities Research Volume 554. – Atlantis Press, 2021. – P.423-426.
7. А.И.Федорова. Фразеологический словарь русского литературного языка/ под ред. – М., 1996, 272 р.